

“ZAMONAVIY SHE’RIYAT VAKILI OYDIN HOJIYEVA SHE’RLARIDA
KO‘Z OBRAZINING TASVIRLANISHI

Mansurova Feruza Hikmat qizi

Osiyo xalqaro universiteti, 3-FT-(o’)-24 guruh talabasi

Ilmiy rahbar: professor

Sh.N.Axmedova

Annotatsiya: *Ushbu maqola zamonaviy she’riyat vakili Oydin Hojiyeva she’rlarida ko‘z obrazining turli talqinlarda tasvirlangani, shoira she’rlarida so‘z qo‘llash mahorati haqida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *ko‘z obrazi, tashxis she’riy san’ati, lirik qahramon, ayol, vatan*

Abstract: *This article discusses the various interpretations of the image of the eye in the poems of the representative of modern poetry, Oydin Hojiyeva, and the skill of using words in the poet's poems.*

Keywords: *eye image, lyrical hero diagnosis, poetic art, motherland.*

KIRISH

Adabiyot-so‘z orqali badiiy tasvirlash san’ati ekan, badiiy til dastavval, obrazlilik xususiyati bilan namoyon bo‘ladi, hayotning jonli manzarasini yaratadi va ko‘rsatadi. Adabiy asarni yaxlit, jonli qiluvchi asosiy kuch-badiiy tildir.

Adabiyotda hech kim qo‘llamaydigan qiyoslarni qo‘llash ijodkorlarning mahoratidan dalolat beradi. Hozir she’r bo‘stoniga kirgan she’rxonga tabiiy ko‘zning o‘zi kamlik qiladi. She’r ortida turgan shoirni anglash, tushunish, solishtirish uchun ham har xil ko‘zlar kerak bo‘ladi. O‘zbek she’riyatida nozik didli, hech kim tasvirlamagan, ko‘rmagan timsollarni tasvirlagan ijodkorlardan biri Oydin Hojiyevadir. Uning she’rlarida tasvirlangan obrazlar shoira shoiraning iste’dodli ijodkorligidan dalolat beradi.

Oydin Hojiyeva turli mavzularda qalam tebratgan. Uning she’rlarida ayol ruhiyati, istiqbol, istiqbol, sho‘ro davridagi hayot haqiqatlarini ko‘rishimiz mumkin. Oydin Hojiyevaning aksariyat lirik qahramoni ayoldir. Ayol-hayot tirgagi, allasi bilan o‘g‘lini Alpomishday bo‘lishga da’vat etadi. Oilasini, yel-yurtini balolardan himoya qiladi. Jasoratli, aql-hushli ayollar ko‘p bo‘lgan xalq hamisha o‘sadi.

O‘riklar shoxida yondi ming chiroq,

Pushti kapalaklar qo‘ndi bodomga.

Oftob bir qizdirsa, ko‘zlari qora

Lolaqizg‘aldoq qiz chiqvolar tomga [2.48 b].

Ushbu she’rida shoira bahor kelishini, navro‘z bayramining shukuhini tasvirlagan. Bundan tashqari bu she’rda shoira qora kunlar tugab, yangi hayot boshlanayotganini tasvirlagan desak, adashmagan bo‘lamiz. Ko‘zlari qora (o‘z ma’nosida kelgan) qizni lolaqizg‘aldoqqa o‘xshatadi.

10-Aprel, 2025-yil

Shoiraning mustaqillikka erishganimizdan so‘ng yozgan she‘rlarida lirik qahramon hurlik, ozodlik, yerkinlik, tinch-totuvlikni madh etgan. Istiqlol tufayli buyuk ajdodlarimiz nomi oqlandi, qadimiy obidalarimiz tiklandi. Shoira mana shunday tushunchalarga ishora qilgan holda istiqlool desak, ko‘nglimiz ming bor shod-xurram bo‘ldi degan mulohazalarini "Laylaklar uya qurgan Buxoriy minor o‘sar” satrlari orqali samimiy tasvirlaydi

Yashamoq!

Osmonga yetadi boshim

Bu oddiy, mehnatkash, so‘z qudratidan,

Ko‘zimdan tirqirab ketadi yoshim

Quyosh isli yorug‘ dunyo baxtidan [2,68 b].

Bu satrlar she‘rxon qalbida shukronalikni uyg‘otadi. Oydin Hojiyevaning lirik qahramoni baxtli, unda hayotga muhabbat, kelajakka ishonch tuyg‘ulari ufurib turmoqda. Shu bois mamnunligi, baxtililigidan “ko‘zlaridan yoshi tirqirab ketadi” (bu misolda ham ko‘z o‘z ma‘nosida kelgan. Pokiza ishq nafasi bilan qorishgan lirik chigzilarni bahor quyoshi bilan yoritadi. Ma‘lum ma‘noda shoiraning o‘z chamanzori bor, Bu chamanzorga esa kuzgi xazonlarga o‘rin yo‘q.

Oydin Hojiyeva bundan tashqari she‘rlaridagi obrazlarga ham alohida ahamiyat qaratadi. Uning she‘rlaridagi obrazlarning har biri o‘ziga xosdir, shoira tasvirlagan ko‘z obraziga ham alohida to‘xtalib o‘tsak, shoira “Mo‘jiza lahzalari she‘rida quyidagi satrlarni keltirgan:

Qor bosgan tog‘lardan sakrab kaklikday,

Yillarim chiqar qish ertaklaridan.

Ko‘zim-la erkalab g‘uncha qizlarni,

Dilbar singillarim manglayin o‘pdim [2, 78 b].

Ushbu she‘rida shoira qish tugab bahor kelayotganini tashxis (jonlantirish) she‘riy san‘ati orqali chiroyli tasvirlab bergan. Lirik qahramon ko‘zlari bilan g‘uncha qizlarni erkalashini she‘rda go‘zal tasvirlab bergan. Bu misolda insonlarning bir-biriga mehr bilan qarashi “ko‘zning erkalashi” misolida ohorli tasvirlanadi.

...Cho‘ponlarning nayiday

Kuylab yotar jilg‘alar

Boqsang ko‘zni olguday

Kuzak taqqan jilg‘alar.

Shoira ushbu mislarda taxshis she‘riy san‘ati orqali jilg‘alarning nayday kuylashi-yu kuzak taqib ko‘zni qamashtirishni tasvirlagan Ko‘zni olguday iborasi shoiraning so‘zlarni o‘z o‘rnida chiroyli qo‘llay olishidan dalolat bergan.

...Kamalaklar, na‘matakalar, chaqmoqlar

Ko‘zin ochdi bug‘u o‘tgan so‘qmoqlar .

Lirik qahramon ushbu misralarda bog‘ini tasvirlagan. Asosiy obrazni bog‘ga qaratgan bo‘lsa-da, o‘xshatishlar, jonlantirishlar orqali tabiat tasviriga alohida urg‘u berib o‘tgan. Bundan tashqari ushbu she‘rida lirik qahramonning iztiroblari ham bayon etilgan.

10-Aprel, 2025-yil

Jonlantirish san’ati orqali so‘qmoqlarning ko‘zini ochganini keltirgan. Shoira Buxoro haqida she’rida quyidagi go‘zal misralarni keltirgan:

Buxor zardo‘zlarin ko‘z nuri yongan

Zarrin qatimlarda palakka do‘nsam

Bo‘ston osmonida shamolga oshiq

Qamish “qobirg‘a”li varrakka do‘nsam.[2,80 b].

Oydin Hojiyeva zamonaviy o‘zbek she’riyatiga buxorocho nafasni olib kirdi. Uning she’rlarida Buxoro zardo‘zining jilolari, Buxoro kimxobining tovlanishlari aks etgan. Yuqorodagi misrada ham Buxoro zardo‘zining ko‘zni qamashtirishi “ko‘z nuri yongan” deya ta’riflagan.

Xulosa. She’riyatda inson tana a’zolarini ramziy qo‘llash ko‘p uchraydi. Ayniqsa, bunga nazmda kengroq o‘rin berilganiga guvoh bo‘lamiz. Ko‘z insonning hissiyotlarini hech qanday so‘z-harakatlarisiz ifoda eta olish xususiyatiga egadir. Ko‘z obrazi she’riyatda ko‘pincha turli metaforalar, jonlantirish san’atlari, ko‘chma ma’noni ifodalovchi o‘rinlarda qo‘llaniladi. Bu she’rning jozibali yaratilishini hamda kitobxonga tushunarli bo‘lishini ta’minlaydi.

Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinadiki, Oydin Hojiyeva ham she’riyatda ko‘z obrazini turli o‘rinlarda jozibali tasvirlay olgan. Oydin Hojievaning she’rlarini o‘zining sodda, xalqona so‘zlari bilan ifodalari bilan e’tiborni tortadi. Uning she’rlari o‘zining ma’rifiy-estetik xususiyatlari bilan adabiyotimiz xazinasidan muhim o‘rin egallagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Asatjonova I.”Artistic usage of enlightenment ideas in the poerty of Oydin Hojiyeva”.Urganch.
2. Oydin Hojiyeva.”Nazokat”she’r, doston, qasidalar-“Sharq nashriyoti”-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati.Toshkent-2007
- 3.”O‘zbek zamonaviy she’riyati antologiyasi”. 32-jild.T;”O‘zbekiston nashriyoti”.2022-536b . (141-b)
- 4.Google.<https://kh-davron.uz> Oydin Hojiyeva she’rlar.
- 5.vostoko.ucoz.com.Oydin Hojiyeva ”She’rlari”.